



Mavlonov Ilxomjon Xolmirzayevich,
Qo'qon universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrası
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.
 e-mail: kokand_university1977@gmail.com

O'ZBEKISTONNING YANGI TARAQQIYOT BOSQICHIDA MILLIY YUKSALISH KONSEPSIYASINI AMALGA OSHIRISHDA MA'RIFATNING O'RNI

<https://doi.org/10.65185/mojgo.vi.462>

Annotatsiya. Bugungi kunda jahon bo'ylab yuz berayotgan global o'zgarishlar nafaqat bizda, balki barcha davlatlarning ta'lim tizimiga kuchli ta'sir qilmoqda. Taraqqiyotimizning yangi bosqichida mamlakatda ta'lim-tarbiya masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Dunyoning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatish, o'quv jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarini joriy etish, ayniqsa, istiqbolli pedagog va ilmiy kadrlarni xorijning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalarida stajirovkadan o'tkazish va malakasini oshirish borasidagi ishlar bugungi kunning dolzarb masalasidir. G'arb sivilizatsiyasi yuz yildan ortiqroq vaqtdan buyon Sharq ma'naviy madaniyatining ta'sir kuchini boshdan kechirmoqda. Sharq va G'arb ma'naviyatining o'zaro yaqinlashuvi integratsiyasi stixiyali emas, ong bilan siyosiy yo'naltirilgan faoliyat bo'lishi kerak. Ma'rifatli avlodni tarbiyalash zarurati Sharq va G'arb ma'naviyati bilan birga bahra olishga intilarkan, o'z ma'naviy qadriyatlaridan voz kechmasdan, ularni yaxshi saqlagan holda keyingi evolyutsiya bosqichlariga ko'tarilishlari kerak.

Tayanch so'zlar: demokratiya, renessans, ma'rifat, ta'lim, Vatan, meros, konsepsiya, metodika, ma'naviyat, yuksalish.

Аннотация. Сегодня глобальные изменения, происходящие во всем мире, оказывают сильное влияние на систему образования не только в нашей стране, но и во всех странах. На новом этапе нашего развития особое внимание уделяется вопросу образования в стране. Установление тесного сотрудничества с ведущими мировыми научно-образовательными учреждениями, внедрение передового зарубежного опыта в образовательный процесс, особенно работа по организации стажировок и повышению квалификации перспективных преподавателей и ученых в ведущих зарубежных научно-образовательных учреждениях, являются сегодня неотложными задачами. Западная цивилизация более ста лет испытывает влияние восточной духовной культуры. Сближение и интеграция восточной и западной духовности не должны быть спонтанными, а должны быть сознательно и политически направленной деятельностью. Необходимость воспитания просвещенного поколения, стремящегося извлечь пользу из духовности Востока и Запада, не должна отказываться от своих собственных духовных ценностей, а должна бережно их сохранять и двигаться к следующим этапам эволюции».

Ключевые слова: демократия, возрождение, просвещение, образование, Родина, наследие, концепция, методология, духовность, возвышение.

Annotation. Today, global changes taking place around the world are having a strong impact on the education system not only in our country, but also in all countries. At a new stage of our development, special attention is paid to the issue of education in the country. Establishing close cooperation with the world's leading scientific and educational institutions, introducing advanced foreign experience into the educational process, especially the work on conducting internships and improving the skills of promising

teachers and scientists in leading foreign scientific and educational institutions are urgent issues today. Western civilization has been experiencing the influence of Eastern spiritual culture for more than a hundred years. The rapprochement and integration of Eastern and Western spirituality should not be spontaneous, but should be a consciously and politically directed activity. The need to educate an enlightened generation, striving to benefit from the spirituality of the East and the West, must not abandon their own spiritual values, but must preserve them well and move on to the next stages of evolution.

Keywords: democracy, renaissance, enlightenment, education, Homeland, heritage, concept, methodology, spirituality, elevation.

Har bir kishining o'z Vataniga qoldirgan eng yaxshi boyligi yaxshi tarbiyalangan farzandidir.

Chingiz Aytmatov

Kirish. Jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda milliy yuksalish konsepsiyasini amalga oshirishning zaruriyati va istiqbollari bugungi kunda global o'zgarishlar davrida uzluksiz ta'lim tizimi bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Shu sababli, taraqqiyotning yangi bosqichida mamlakatda ta'lim-tarbiya masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Dunyoning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatish, o'quv jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish, ayniqsa, istiqbolli ilmiy kadrlarni xorijning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalarida o'qitish va ularning malakasini oshirish borasidagi ishlar bugungi kunning dolzarb masalasidir. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur bo'ladi.

Ma'naviyat va ma'rifat masalasi shuning uchun ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Millatning ma'naviy-ma'rifiy boyligi esa har tomonlama yetuk iste'dodli va qobiliyatli, axloqli va bilimli yoshlar tomonidan rivojlantiriladi.

Maqsad va uni asoslash. Mazkur maqolani yozishdan maqsad biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g'oyat og'ir sharoitda ilm-ma'rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g'oyalarini dadil ko'tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o'rganishimiz lozim. Ularning ulug' maqsadlar yo'lidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi O'zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo'lib xizmat qilishi zarur"¹. Buning uchun esa milliy

yuksalish jarayonida "Buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlash"² asosiy vazifa qilib belgilanmoqda.

Buning uchun, avvalombor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik³. Bu esa professional ta'lim tizimi bo'yicha pedagog kadrlarni malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari va o'quv rejalari asosida shakllantirilgan bo'lib, uning mazmuni professional ta'lim sohasida davlat siyosati, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish milliy tizimi, o'z-o'zining bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish va tadbirkorlikni rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy asoslari, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, o'qituvchining innovatsion faoliyatini rivojlantirishga oid bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Bugun mamlakatimiz demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish yo'lidan sobitqadamlik bilan bormoqda. Tezkor zamon talabidan kelib chiqib, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev yangicha fikrlaydigan, mas'uliyatli, tashabbuskor, ilg'or boshqaruv usullarini puxta o'zlashtirgan, vatanparvar, halol kadrlarni tanlash va tayyorlash bo'yicha samarali tizim yaratilishini kechiktirib bo'lmas vazifa etib belgiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida quyidagi fikrlarni

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil uchun Murojaatnomasi // <https://review.uz/oz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil>

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент: Ўзбекистон. 2018. – Б 20.

³ Мирзиёев Ш.М. "Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари". – Тошкент: Ўзбекистон. 2020. – Б. 10.

ta'kidlab o'tdilar: "Bugun kelgusi yil uchun reja va dasturlarimizni aniq belgilab olar ekanmiz, mustaqillik yillarida erishgan yutuqlarimizni yanada mustahkamlab, eng muhim va ustuvor sohalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratamiz, albatta Buyuk ajdodimiz Imom Moturidiy hazratlarining "Tiriklik hikmatini sog'liqda, deb bilgin", degan chuqur ma'noli so'zlari naqadar to'g'ri ekanini hayotning o'zi bugun qayta-qayta isbotlamaqda. Shu bois mavjud imkoniyat va salohiyatimiz, pandemiya davrida orttirgan tajribamiz hamda xorijdagi ilg'or yutuqlardan foydalanib, aholi salomatligini asrash va mustahkamlash borasidagi tub islohotlarni yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur. Bunda, aholi ayniqsa, yoshlarimiz o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish eng ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi lozim.

Umuman har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko'lamini va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz. Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'yar ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Mirzo Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlaridan bo'lib, xizmat qilishi lozim"⁴.

Ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy bundan qariyb yuz yil avval 1914-yilda "Oyina" jurnali orqali "Muhtaram yoshlarga murojaat" e'lon qilib, unda shunday degandi: "Muhtaram birodarlar! Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondurki, makotib (maktab-tahrir) – taraqqiyning boshlang'ichi, madaniyat va saodatning darvozasi. Har bir millat eng avval, makotibi ibtidoiysini (eski maktabini-tahrir) zamonga isloh etib ko'payturmaguncha tarqqiy yo'lig'a kirub madaniyatdan foydalanmas. Madaniyati hoziradan

(zamonaviy madaniyatdan-tahrir) mahrum qolub, sanoye va ma'orif salohi ila (san'at va ma'rifat quroli bilan-tahrir) qurollanmagan millat esa, dunyoda rohat va saodat yuzini ko'rolmas"⁵, – degan edi.

Uning zamondoshi va izdoshi Abdulla Avloniy esa o'zining "Turkiy Guliston yohud axloq" asarida:

Bu zamonda fil ila aylamak erlik emas,
Er o'shaldurkim tutar ilm-u hunarning yoqasin.
Beshlab, o'nlab so'm topishsa, ilm ila ag'yorlar,
Biz bo'lib hammol, olodurmiz tiyinlab chaqasin.
Boshqalar san'at, tijorat-la taraqqiy aylasa,
Bizni el tortar ayog'din o'lgan otning taqasin –
deya kuyinib yozgan⁶.

Yuqoridagi tarixiy misollarni keltirishdan ko'zlangan maqsad biror-bir mamlakatning hozirgi darajasi, kelajakdagi taqdiri o'sha yurtdagi maktablarning holiga, u yerda beriladigan ta'lim va tarbiyaning mazmuni hamda sifatiga chambarchas bog'liqdir. Zero, bugunning va ertaning egalari ayni shu ilm dargohlarida voyaga yetadi, inson bo'lib shakllanadi.

Birinchi prezidentimiz ta'lim va tarbiyaning o'zaro mustahkam bog'liqligini, ularni bir-biridan ajratish aslo mumkin emasligini alohida ta'kidlaydi: "Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi"⁷.

Ma'rifatparvar bobomiz Abdurauf Fitrat "Avlodni tarbiyalash insoniyatning xizmatidir. Qachonki bu yaxshi ahloq egasi bo'lgan farzandlarni tarbiyalasak, shundagina bo'yimizdagi bu xizmat majburiyati soqit bo'ladi. Kimki badaxloq bolalarni tarbiya etsa, insoniyatga xizmat emas, balki dushmanlik qilgan bo'ladi. Jamiyat ularning farzandlaridan bezor bo'ladi. Xush va yaxshi axloqqa ega bo'lgan farzand imon sohibi bo'lgan ota – onadan bo'ladi, agarda ota-ona axloqsiz bo'lsalar, ularning tarbiyalari soyasida o'sgan farzand ham badahloq bo'ladi"⁸, – deya ta'kidlaganlar.

Binobarin, har bir inson sof vijdoni, baquvvat iymoni, qat'iy irodasi, chuqur bilimi, tadbirkorligi, kasb-hunari, umuman olganda, insoniylik salohiyati bilan Vatan tuyg'usini chuqur anglashi, Vatanini sevishi, himoyalashi, uning ravnaqiga hissa qo'shishi

⁵ Бехбудий М. "Танланган асарлари". – Тошкент. Маънавият. 2009. – Б. 13.

⁶ Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq" – Toshkent: Ma'naviyat. 2010. – B. 17.

⁷ I.A. Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". – Toshkent: "Ma'naviyat" nashriyoti, 2008.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil uchun Murojaatnomasi // <https://review.uz/oz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil>

bilan vatanparvar hisoblanadi. Chunonchi, Vatan ozodligi millatning shon-shuhrati uchun fidoyilik bilan kurashgan To‘maris, Shiroq, Spitamen, Najmiddin Kubro, Solihbek dodho, mulla Alimqul dodho singari sheryuraklar va tomirida oxirgi tomchi qoni qolguncha kurashgan Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Abdumalik To‘ra, Qurbonjon dodho, Madaminbek, Ibrohimbek singari bahodirlarimiz bilan har qancha g‘ururlansak arziydi. Shuningdek, XX asrning 10-yillaridan millat ozodligi yo‘lida, xalqni uyg‘otishga, ular qalbiga istiqloq orzusini payvand etishga kirishgan Munavvarqori, Fitrat, Behbudiy, Cho‘lpon, A.Avloniy, A.Qodiriy kabi millatparvar jadidchilik harakati namoyandalari millat ozodligi va erki yo‘lida fidoyilik namunasini ko‘rsatganlar.

Xususan, A.Avloniyning “Millatga xitob” she‘rida quyidagi misralarni o‘qiymiz:

Ko‘zingni och, ey millat, ko‘p zamon g‘ofil yotding,

Umring o‘tdi yotmoqda, qayg‘uga toza botding.

Shiroq va To‘marisning mardlik, qahramonliklari ham beqiyos saboqdir. Ulug‘ bobomiz sohibqiron Amir Temur hazratlarining ona Vatanni chet ellik bosqinchilar zulmidan xalos etishi, Vatan qudratini oshirish uchun tadbirkorlik bilan olib borgan jang-jadallaridagi afsonaviy jasratlari, temuriy zoda Bobur Mirzoning o‘zi tug‘ilib o‘sgan Vatanidan ayriliqda bir dunyo afsus-nadomatlar ila bitgan kabi dardli satrlari har bir o‘quvchi qalbida Vatanga boqiy muhabbat tuyg‘usini tarbiyalashi shubhasizdir:

Tole‘ yo‘qi jonimga balolig‘ bo‘ldi,

Har ishniki, ayladim, xatolig‘ bo‘ldi.

O‘z yerni qo‘yib, Hind sari yuzlandim,

Yo rab! Netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi?

Aziz Vatanimizda yuksak e‘tiqod bilan yashash, ona-yurtga hamisha sadoqatli bo‘lish, xalqimizning boy ma‘naviy merosi, urf-odat, an‘analari, til va madaniyatiga hurmat bilan qarash, yurtimiz tarixini muttasil o‘rganib borish Vatan tuyg‘usini shakllantiradi. Bu tuyg‘uni his etish esa, avvalo, o‘zlikni anglash bilan ifodalanadi.

O‘zbek xalqi tarixan boy madaniyatga ega. Milliy madaniyatimizni va ma‘naviyatimizni hatto chet el bosqinchilari ham katta kuch bilan yo‘q qila olmaganlar. Chunonchi, bu haqida Turkiston bosqini tashkilotchisi Skobelev o‘z podshohiga yozgan maktubida “Mahalliy xalq biz o‘ylagandan ko‘ra

madaniyatli ekan. Ularni bo‘ysundira olmayapmiz... Bu xalqni o‘tmishida yaratgan barcha asoriatlilarini, masjid-madrasalarini, diniy kitoblarini yer bilan yakson qilibgina, uning ma‘naviyatini so‘ndiribgina o‘z qanotimiz ostiga olishimiz mumkin”⁸, deb yozgan edi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 29-yanvar kuni Toshkent Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurgan chog‘ida jadidlar qirg‘ini borasida o‘z fikrlarini bildirdi: “Agar jadidlarimiz qirg‘in qilinmaganda edi, hozir bizda “To‘rtinchi renessans” bo‘lardi. Agar ota-bobolarimiz qirib tashlanmaganda edi, ularning bilimi, ularning ilmi bilan katta kashfiyotlar qilinardi. Lekin ular yo‘q qilindi. Xo‘sh, birinchi marta O‘rta Osiyodan Germaniyaga borib o‘qiganlar qayerdan edi? Bizdan edi. Ularni ham o‘sha joyning o‘ziga borib yakson qilib kelishdi. O‘z vaqtida bizdagi yangilik, kashfiyot va tarixni ham kitoblarga o‘z bilganicha, o‘ziga keragicha kiritishdi, kerakmasini yo‘q qilishdi”⁹.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev raisligida 2019-yil 23-avgust kuni bo‘lib o‘tgan xalq ta‘limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va nufuzini oshirish, yosh avlod ma‘naviyatini yuksaltirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida ta‘lim va tarbiyaning ahamiyati haqida o‘z fikrlarini bildirdi. Mazkur yig‘ilishda davlatimiz rahbari yosh avlod tarbiyasi, odob-axloq haqida to‘xtalib: “Maktab – bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Bu masalani davlat, hukumat va hokimlarning o‘zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak. Maktabni o‘zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o‘zgartirib bo‘lmaydi”¹⁰, – deya alohida ta‘kidladi.

Darhaqiqat, uzoq yillar davomida tarbiya bolalar ta‘limidan bo‘sh vaqtida amalga oshiriladigan qo‘shimcha yuklama-ikkinchi darajali ishga aylanib, uzuq-yuluq jarayon bo‘lib kelgani hamda jamiyatning pedagogik madaniyati pasayib, maktabgacha ta‘lim, maktab pedagoglari, ota-onalarning tarbiyaga oid pedagogik-psixologik bilimlari zamon talablariga javob bermay qoldi. Tarbiyada yo‘l qo‘yilgan xatolar asoratlari kundalik hayotda, ommaviy axborot

⁸ “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси”. Тошкент, «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2016. – Б. 187.

⁹ Мирзиёев Ш.М. “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари”. – Тошкент: Ўзбекистон. 2020. – Б. 10.

¹⁰ Мирзиёев Ш.М. “Янги Ўзбекистон стратегияси”. – Тошкент: “O‘zbekiston”nashriёти, 2021. –Б. 226.

vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilinib jamoatchilikning haqli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda. Shunday bir vaziyatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-mayda qabul qilingan "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4307-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda qabul qilingan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1059-sonli qarori millat kelajagi, millat ma'naviy taraqqiyoti uchun bir o'ziga xos tarixiy voqelik bo'ldi.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining asosi milliy tarbiyamiz Unsur ul-Maoliy Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Abu Nasr Farobiy, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat kabi ulug' mutafakkirlarimizning ma'naviy ilmiy merosiga asoslangan. Ayni vaqtda dunyoning rivojlangan davlatlari tajribasida sinovdan o'tgan zamonaviy tarbiya texnologiyalaridan foydalanish konsepsiyaning zamon bilan hamnafasligiga xizmat qiladi. "...Hamma narsa tarbiyaga bog'liq. Tarbiya yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir"¹¹, – degan edi milliy pedagogikamiz darg'asi Abdulla Avloniy. Konsepsiya ana shu hikmatga hamohang bo'lib, unda farzandlarimizda milliy yuksalishimiz uchun eng zarur fazilatlar: Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich rivojlantirib boriladi.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi o'zida dunyoning pedagogik tajribasi va yutuqlarini mujassam etgani bilan alohida ta'kidlanadi. Jumladan, Yevropa Ittifoqining tarbiyaviy tavsiyalari, AQSh tajribasidan shaxs erkinligi, tadbirkorlik, muvaffaqiyatga erishishga intilish, Janubiy Koreyada yoshlar ongiga urf-odatlar, axloqiy ideallarni singdirish, Yaponiyaning "xarakterni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim", Xitoyning yaxshilik, to'g'rilik, poklik, donolik va ishonchlilik kabi fazilatlarini tarbiyalashga qaratilgan

pedagogik tajribalari o'rganilgan. Konsepsiyada O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini ilmiy texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar va uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishga katta ahamiyat berilgan. Bunda oila, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy pedagogik hamkorligi yangi darajaga ko'tariladi.

Konsepsiya oldiga qo'yilgan vazifalar:

- ma'naviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;
- tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanib voyaga yetgunga qadar davom etadigan, tadrijiylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan metodikasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish;
- bola tarbiyasida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish;
- tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi va malakasini muntazam oshirib borish;
- ma'naviy tarbiyani shakllantirishda oila, mahalla va ta'lim muassasalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo'lga qo'yish;
- ma'naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishidan iborat.

Shuningdek, prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasidagi quyidagi o'rinlarni keltirib o'tish joiz: "Bir so'z bilan aytganda, bola tug'ilgandan boshlab 30 yoshgacha bo'lgan davrda uni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o'rin topishi uchun ko'mak beradigan yaxlit va uzluksiz tizim yaratiladi. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish uchun sarflangan sarmoya jamiyatga o'n, yuz barobar ko'p foyda keltiradi.

Buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino bundan ming yil oldin "Dovyurak va botir insonlar kelajakda sodir bo'ladigan qiyinchiliklardan qo'rqmaydi", deb bejjiz aytmagan. Agar katta avlodning bilimi va tajribasini, uzoqni ko'ra olish fazilatlarini yoshlarimizdagi g'ayrat-shijoat, mardlik va fidoiylilik bilan birlashtira olsak, ko'zlagan marralarga albatta yetamiz. Yangi O'zbekistonni ana shunday bilimli

¹¹ Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq". –Toshkent: Ma'naviyat, 2010. – B. 17.

va bunyodkor yoshlarimiz bilan birgalikda barpo etamiz”¹².

Yoshlik qalbning musaffoligini saqlash, uni iymon va ilm-u ma’rifat nuri bilan to’ldirish uchun eng qulay fursatdir. Shunday ekan, biz muhtaram yurtboshimizning ta’birlari bilan aytganda: Farzandlarimizni dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda Imom Buxoriy to’plagan hadislar, Naqshbandiy ta’limoti, Termiziy o’gitlari, Yassaviy hikmatlari asosida tarbiya qilishimiz lozim.

Yakuniy qism. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, bugungi kunda mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, birinchi navbatda, yoshlarga, ularning amaliy faoliyatiga, axloqiy barkamolligiga, g’oyaviy-siyosiy yetukligiga, milliy o’zligini qanchalik chuqur va mukammal anglab olganliklariga ham bevosita bog’liq ekanini ta’kidlab o’tishimiz mumkin. Ayni paytda jamiyatimizda yoshlarga yanada keng yo’l ochish, ularning davlat va xalq hayotida mustahkam, munosib joy olishi uchun kerak bo’lgan shart-sharoitlarni yaratib berish bu yo’ldagi asosiy va dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

Birinchiidan, bugun zamonaviy ilm-fan va yuqori texnologiyalarni mukammal egallash har qanday davlat va jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi shartiga aylanib bormoqda. Shuning uchun navqiron avlodni ham jismoniy, ham ma’naviy

jihatdan barkamol bo’lib voyaga yetishi uchun bor kuch va imkoniyatlarni safarbar etadigan davr keldi.

Ikkinchidan, mamlakatimiz taraqqiyoti uchun mayoq bo’layotgan yangi taraqqiyot strategiyasi doirasida xalq manfaatlariga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Uchinchiidan, “Yangi O’zbekiston – yangicha dunyoqarash” g’oyasi ostida yoshlarni birlashtira olish imkoniyatiga ega bo’lgan ma’naviy-ma’rifiy targ’ibotlar yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan innovatsion ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning o’rni katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

To’rtinchidan, mamlakat taraqqiyotining asosiy shartlaridan biri jamiyatda ma’rifatli kishilar salmog’ining ko’pligidir. Chunki ma’rifatli shaxslar ma’naviy qaramlik, qo’rquv va hadikni bartaraf qila olish qobiliyatiga ega bo’ladi.

Beshinchidan, O’zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida odamlar ongi va dunyoqarashida o’zgarish yasash zarurligiga katta e’tibor berib kelinmoqda. Bunda uzluksiz ta’limni tubdan isloh qilish, o’qish va o’qitish uslubini jahonning ilg’or tajribalari asosida yangidan ishlab chiqish va shu asosda yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish ma’rifiy sohadagi eng dolzarb vazifalardan biridir. Hozirgi davrda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning yo’nalishi har bir kishi ongi va qalbiga milliy g’oyani singdirish, barkamol avlodni voyaga yetkazish, ezgulik kabi fazilatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

¹² Мирзиёев Ш.М. “Янги Ўзбекистон стратегияси”. – Тошкент: “O’zbekiston” nashriyoti, 2021. – Б. 237.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O’zbekiston, 2017. – B. 80.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martda qabul qilingan “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-5040-son Qarori.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentabrda qabul qilingan “O’zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5185-son Farmoni.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrda qabul qilingan “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Жилд 1. – Тошкент: Ўзбекистон. 2017. – Б. 592.
6. Мирзиёев Ш.М. Халқимиз розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Жилд 2. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б. 508.
7. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. Жилд 3. – Тошкент: Ўзбекистон. 2019. – Б. 400.
8. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. Жилд 4. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – Б. 456.
9. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида // Расмий нашр. - Тошкент: Адолат. 2017. – Б. 112.